

SUN'IY INTELEKT VA UNING KELAJAKKA TA'SIRI

Soxadinova Madina Sodiq qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xorijiy til va adabiyoti fakulteti talabasi

Madinasoxadinova01@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jamiyat, iqtisodiyot va ta'lim sohalariga ta'siri tahlil qilinadi. Maqola SIning ijobiy imkoniyatlari bilan birga, uning ehtimoliy xavf va muammolarini ham yoritib beradi. Tadqiqotda SI yordamida avtomatlashtirilgan jarayonlar, inson faoliyatining o'zgarishi va kasb yo'nalishlariga ta'siri haqida fikr yuritiladi. Maqola SI haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish va uning istiqbolini tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, texnologiya, tadqiqot, ta'lim, iqtisodiyot, avtomatlashtirish.

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние технологий искусственного интеллекта (ИИ) на общество, экономику и сферу образования. Рассматриваются как положительные возможности ИИ так и потенциальные риски и проблемы. В исследовании анализируются автоматизированные процессы с использованием ИИ, изменения в человеческой деятельности и влияние на профессиональные направления. Статья помогает сформировать общее представление об ИИ и лучше понять его перспективы.

Ключевые слова: искусственный интеллект, технология, исследовать, образование, экономика, автоматизация.

Annotation: This article explores the impact of artificial intelligence (AI) technologies on society, the economy, and education. It shows both the positive opportunities offered by AI and the potential risks and challenges it may pose. The study discusses automation processes driven by AI, changes in human activity, and

their influence on career path. This work aims to give a general understanding of AI and contribute to a deeper insight into its future prospects.

Key words: *artificial intelligence, technology, exploration, education, economy, automation.*

KIRISH

So'ngi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari global miqyosda jadal rivojlanib, jamiyatning turli sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. SI algoritmlari yordamida axborotni qayta ishlash, o'z-o'zini o'rgatish, qaror qabul qilish va murakkab jarayonlarni avtomatlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat ishlab-chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotni ham tubdan o'zgartirishga xizmar qilmoqda. Shu bilan birga, SI bilan bog'liq xavfsizlik, etik me'yorlar va mehnat bozori barqarorligiga doir masalalar dolzarb bo'lib bormoqda. Mazkur maqolada SI texnologiyalarining jamiyat, iqtisodiyot va ta'lim sohalariga ta'siri, shuningdek, kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlariga oid fikrlar tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR


Tadqiqot davomida sifatli tahliliy yondashuv asosiy metod sifatida tanlandi. Ishlab chiqarilgan mavzu bo'yicha to'plangan ilmiy va analitik materiallar chuqur o'rganildi hamda mavzuga oid nazariy qarashlar, ilgari olib borilgan tadqiqot natijalari bilan taqqoslab tahlil qilindi. Maqola statistik yoki eksperimental usullarga asoslanmagan bo'lib, asosan mavjud ilmiy maqolalar, hisobotlar va amaliy misollarni tahlil qilish orqali asoslangan.

Adabiyotlar tahlilida bir qancha maqolalar tanlab olindi, jumladan, sun'iy intellektning sanoat, tibbiyot, ta'lim, transport va ijtimoiy hayotga ta'sirini yorituvchi nufuzli manbalar tahlil qilindi. Manbalar Google Scholar, ScienceDirect, ReaserchGate kabi xalqaro ilmiy bazalardan tanlab olingan bo'lib, ularning dolzarbligi, ishonchliligi va mavzuga to'g'ridan-to'g'ri aloqadorligi hisobga olindi. Ayniqsa, sun'iy intellektning axloqiy (etik), huquqiy va ijtimoiy jihatlariga oid tadqiqotlar asosiy tahlil obyekti sifatida qaraldi.

Adabiyotlar orasida sun'iy intellektning turli sohalaridagi qo'llanishi va ijtimoiy ta'sirini tahlil qiluvchi ilmiy maqolalar va sharhlar asosiy manba sifatida tanlab olindi. Jumladan, internetda ochiq nashr etilgan dolzarb maqolalar, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan analitik materiallar va mustaqil tadqiqotchilar tomonidan yozilgan maqolalar tahlil qilindi. Tanlangan adabiyotlar mavzuni har tomonlama yoritishga, mavjud yondashuvlar va qarashlar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashga xizmat qildi. Ushbu adabiy manbalar yordamida sun'iy intellektning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, manbalar asosida mavzuning ilmiy dolzarbligi va amaliy ahamiyati haqida xulosalar chiqarildi. Adabiyotlar tanlovida materiallarning yangiligi, ishonchliligi va mavzuga mosligi asosiy mezon sifatida belgilandi.

NATIJALAR

Sun'iy intellekt nima o'zi? U qanday ishlaydi?



Sun'iy intellekt texnologiyalari innovatsion yutuqlar orqali insoniyat hayot tarziga sezilarli ta'sir ko'rsatib, kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ushbu texnologiya jamiyatning turli sohalarida jadal rivojlanib, insoniyatning aqliy faoliyatini imitatsiya qiluvchi tizimlar orqali samaradorlikni oshirmoqda. "Sun'iy intellekt" atamasi ilk marotaba 1956-yilda ilmiy konferensiyada taqdim etilgan bo'lib, shundan buyon u turli fan va texnologiyalar

rivojida muhim o'rin egallab kelmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishiga tabiiy tilni generatsiyalash, internet tarmog'ining kengayishi va axborot texnologiyalari taraqqiyoti katta hissa qo'shdi. Ilk davrlarda mustaqil texnologiya sifatida qaralgan bu soha bugungi kunda ko'plab ilovalarda, ya'ni tibbiyot, ta'lim, transport, sanoat va boshqa sohalarda keng foydalanib kelinmoqda. AI qisqartmasi bilan tanilgan sun'iy intellekt bu inson tafakkurini modellashtirishga urinuvchi kompyuter tizimlari majmuasidir.

“Sun'iy intellekt “atamasi ilk marotaba Jon Makkarti tomonida ilmiy muomalaga kiritilgan. 1956-yilgi Dartmut konferensiyasida sun'iy intellekt alohida ilmiy yo'nalish sifatida tan olingan. Dastlabki yillarda bu sohada matematik modellar, mantiqiy tahlillar va dasturlash algoritmlari asosiy vosita bo'lgan. 1997-yilda IBM tomonidan ishlab chiqilgan Deep Blue kompyuteri shaxmat bo'yicha Garri Kasparovni yengganidan so'ng, sun'iy intellektga qiziqish yanada kuchayib boradi.

“Sun'iy intellekt-bu tezkor hisoblash muhitida algoritmlar yaratish va qo'llash orqali insonning aql-idrok jarayonlariga taqlid qilishga asoslanadi. Sodda qilib aytganda, sun'iy intellekt kompyuterlarni odam kabi o'ylash va ulardek yechim topishga yo'naltiradigan texnologiyadir”[1]. Sun'iy intellekt inson faoliyatining barcha jabhalarida chuqur o'zgarishga sabab bo'ladigan zamonaviy texnologiya hisoblanadi. U nafaqat texnikaviy muammolarni hal qilishda, balki inson tafakkuri, qaror qabul qilish jarayoni va kundalik hayotda ham muhim o'rin egallaydi.

Sun'iy intellekt qanchalik yetakchilik qilayotganligiga qaramay, bir qancha kamchiliklardan ham xoli emas.

Sun'iy intellekt kasbiy faoliyatlar kamayishi va ishsizlar sonining oshib ketishiga sabab bo'lishi mumkinmi?

“Dasturiy ta'minot sanoati jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, sun'iy intellekt tez orada ko'payib maktab xodimlarini almashtirishi mumkin. Ma'muriyatni boshqarishdan tortib o'qitishgacha, u hamma narsa uchun yechimga ega. O'qitishni samaraliroq qilish uchun o'qituvchilarga kamroq talab tug'dirishi mumkin. Ochiq

onlayn o'qitish tizimi sinf hajmi endi sifatli ta'limning hal qiluvchi omili emas va sun'iy intellektni amalga oshirish o'quv qo'llanmalari va yordamchilarning kamayishini anglatishi mumkin"[2]. Aslida, sun'iy intellekt inson faoliyatini to'liq almashtirishi emas, uni yanada samaraliroq bo'lishi uchun yordamchi vosita bo'lishi kerak, chunki ta'lim sohasida insoniy omil va pedagogik tajriba alohida ahamiyatga ega.

Kelajakda kutilayotgan o'zgarishlar:



Sun'iy intellekt yaqin kelajakda turli sohalarda sezilarli ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda. Asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

Sanoat va bandlik: SI avtomatlashtirishni tezlashtirib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiradi. Biroq bu ba'zi ish o'rinlarining yo'qolishiga yoki o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Tibbiyot: Tashxis qo'yish, ma'lumotlarni tahlil qilish va individual davolash rejalarini tuzishda SI yordam beradi. Bu sog'liqni saqlashda aniqlik va samaradorlikni oshiradi.

Transport va logistika: Avtonom mashinalar va aqlli transport tizimlari yo'l harakati xavfsizligini va samaradorligini yaxshilashi kutilmoqda.

Hayot tarzi: Aqlli texnologiyalar yordamida kundalik hayot qulaylashadi.

Masalan, sun'iy yordamchilar va inson odatlariga moslasha oladigan dasturlar turmush sifatini oshiradi.

“SI ning zamirida fikrlash, bilish, rejalashtirish ,o'rganish, muloqot qilish, his qilish, obyektlarni boshqarish va harakatlantirish qobiliyati kabi ko'nikmalar to'plami mavjud. Umumiy razvedka (yoki “kuchli SI”) sanoatning uzoq muddatli maqsadlaridan biridir”[3]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, sun'iy intellekt inson aql-idrokining ko'p jabhalarini texnologik darajada modellashtirishga intilmoqda. Sun'iy intellektning bunday salohiyati undan mas'uliyatli va ongli foydalanishni, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'minlashni talab qiladi.

Sun'iy intellekt bozorining o'sishi va shaxsiy ma'lumotlar xavfi:

“Sun'iy intellekt juda katta hajmdagi ma'lumotlarni iste'mol qiladi va biznesi ushbu texnologiya asosida qurilgan kompaniyalar o'z xizmatlarini maqsadli va samaraliroq qilish uchun ularning rozilgisiz foydalanuvchi ma'lumotlarini to'plashni ko'paytiradilar. Ko'proq ma'lumotlar uchun kompaniyalar maxfiylik chegaralarini bosib o'tishlari mumkin. Ammo sun'iy intellekt bozori misli ko'rilmagan sur'atlarda o'sib bormoqda. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, u har yili taxminan 30 % ga o'sadi. Agar texnologiyani o'zlashtirishning bu sur'ati yana bir necha yil davom etsa, biz tez orada sun'iy intellekt tom ma'noda hamma joyda bo'lishini kuzatishimiz mumkin”[4]. Shu nuqtada ta'kidlash joizki, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi qulayliklar bilan birga muhim xavotirlarni ham yuzaga chiqaradi, ayniqsa, foydalanuvchi ma'lumotlarining maxfiyligi va himoyasi masalasi global e'tiborni talab qiladi. Texnologik yutuqlar inson manfaatlariga xizmat qilishi uchun uni tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlar ham takomillashtirilib borishi lozim.

XULOSA

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi kelajakda jamiyatning turli sohalarida tub o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. U sanoat, tibbiyot, transport, ta'lim va kundalik hayotda samaradorlikni oshirib, inson faoliyatini yengillashtirishda katta rol o'ynaydi. Biroq, bu jarayon bir vaqtning o'zida bir qator ijtimoiy, etnik va huquqiy muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Ishsizlik

darajasining ortishi, insoniy munosabatlarning kamayishi, axborot xavfsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi-bular sun'iy intellektdan foydalanishda alohida e'tibor qaratish muhim bo'lgan jihatlardir. Shunday ekan, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan oqilona va mas'uliyat bilan foydalanish, texnologik taraqqiyotni inson manfaatlariga moslashtirish muhim vazifalardan bo'lib qoladi. Bu esa nafaqat texnologik, balki axloqiy, ijtimoiy va qonunchilik nuqtai nazaridan ham muvozanatni talab qiladi. Sun'iy intellekt inson salohiyatini to'ldiruvchi vosita sifatida qaralib, uning yordamida adolat va barqaror kelajak sari intilish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jalilova Mahliyo. "Sun'iy intellekt va uning kelajagi". Innovative academy. 2024-138-bet.
2. Z.O.Nurmatov. O.N.Chorshamiyeva.F.A.Pirimova." Ta'limda sun'iy intellektning ijobiy va salbiy tomonlari". Innovative Academy. 2021-17-bet.
3. Donaboyev Doniyor. " Sun'iy intellekt va uning kelajagi".Laboreconomics.2022-2-bet.
4. Ergashev Ulug'bek Erkinovich. "Sun'iy intellekt muammolari".Wikipedia.2023